

NAMANGAN VILOYATIDA SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HOLATI VA UNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Rayimberdiyeva D, Inoyatova M, Hayitaliyev J

Namangan To'qimachilik Sanoati Institutii

KIRISH

Mamlakatimizning ko'p asrlik tarixi va mustaqillik davridagi taraqqiyotida Namangan viloyati o'zining boy o'tmishi, madaniyati sanoati, qishloq xo'jaligi kabi tarmoqlarda erishilgan natijalari bilan alohida o'rin egallab kelgan.

O'zbekistonning unumdor yerlaridan biri bo'lgan Namangan viloyati Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, g'arbda Toshkent viloyati bilan, janubi-sharqda Farg'ona va Andijon viloyatlari bilan chegaradosh.

Namangan – bu gullar shahri, shu bilan birga, Namangan viloyati o'z kasbining ustasi bo'lmish bog'bonlar va uzumchilar makoni. Hunarmandchilik markazi bo'lgan Chust shahri nafaqat O'zbekistonda, balki chet ellarda ham pichoq ishlab chiqarish san'ati bilan mashhur.

Namangan viloyati rasmiy www.namangan.uz veb-saytida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarida, shu jumladan, sanoat korxonalarida hamda kichik sanoat korxonalarida erishilgan natijalar e'lon qilib boriladi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, viloyatimizda sanoatni rivojlantirish, ayniqsa mahalliy xomashyolardan foydalanib yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish jadal rivojlanmoqda. Bu borada sanoat sohasida tashkil etilayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining o'rnini ham alohida ta'kidlash zarur [1].

Annotasiya. Namangan viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holati va uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilinib mualliflar tomonidan hulosalar va ataklilar keltirilgan.

Viloyatda iqtisodiy imkoniyat va salohiyat, zamonaviy infratuzilma mavjud bo'lib, ayni paytda uni yanada takomillashtirish zarurati ham yo'q emas, buning uchun dunyo tajribasida aniqlanganidek, investitsiya jalb qilish asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Investitsiya, sub'ekt, xomashyo, infratuzilma, chakana savdo.

Eng avvalo, viloyatning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratsak (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyati sanoatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-yil
Yalpi hududiy mahsulot	mlrd.so'm	27 863,0	34 194,1	40 565,1	47 112,6
	o'sish sur'ati, % da	105,1	109,7	106,6	105,4
Sanoat mahsuloti	mlrd.so'm	11 011,9	14 695,1	18 241,8	20 826,5
	o'sish sur'ati, % da	115,3	118,2	109,4	107,2
Iste'mol tovarlari	mlrd.so'm	6 958,5	8 303,8	10 577,6	8 911,8
	o'sish sur'ati, % da	96,4	120,1	117,9	107,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	mlrd.so'm	19827,9	23557,2	27710,2	32824,7
	o'sish sur'ati, % da	104,0	104,6	104,2	104,5
Asosiy kapitalga	mlrd.so'm	12007,2	12 982,0	14 348,2	20 734,5

investitsiyalar	o'sish sur'ati, % da	79,6	100,5	101,2	130,8
Qurilish ishlari	mlrd.so`m	4678,2	5 556,7	6 762,3	7 463,8
	o'sish sur'ati, % da	114,4	109,1	110,3	107,1
Chakana savdo tovar aylanmasi	mlrd.so`m	12 233,8	15 311,3	19 687,0	20 650,7
	o'sish sur'ati, % da	108,4	112,7	114,2	108,2
Xizmatlar, jami	mlrd.so`m	8 928,7	11 619,5	14 722,6	17 822,9
	o'sish sur'ati, % da	103,8	119,7	116,6	111,1
Tashqi savdo aylanmasi	mln. AQSh. Dollor	873,8	1091,0	1276,1	1380,1
	o'sish sur'ati, % da	88,6	124,9	117,0	107,9

Manba: www.namstat.uz millimolar asosida tuzildi [2].

Namangan viloyatida so'nggi 7 yilda (2017-2023 yy) yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi 1,5 barobarga o'sib (2023 yilda o'sish bo'yicha respublikada 6-o'rin), 47,1 trln.so'mni tashkil etdi. Bunda, sanoat mahsulotlari hajmi 2,1 barobar, iste'mol tovarlari hajmi 2,1 barobar, bozor xizmatlari 2 barobar, qurilish ishlari 2,7 barobar, chakana savdo 1,8 barobar, qishloq xo'jaligi sohasi 1,3 barobarga oshdi.

2-jadval

Sanoatning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2010-yil	2012-yil	2014-yil	2016-yil	2018-yil	2020-yil	2022-yil	2023-yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so`m	1000,7	1615,6	2315,2	3475,7	6586,6	11011,9	18120,5	20826,5
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	122,1	110,9	113,1	113,0	113,8	115,3	109,1	107,2

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Namangan viloyatida 2023-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20826,5 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan viloyatda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 7,2 foizga oshganligini ko'rsatadi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanib, hududlar kesimida ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Viloyat bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi

(amaldagi narxlarda; mlrd. so`m)

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Namangan	67,8	330,6	1007,0	2861,9	11011,9	14695,1	18120,5	20826,5

viloyati								
Namangan sh	17,3	103,3	368,5	1370,7	4356,5	6091,0	7052,1	7761,1
<i>tumanlar:</i>								
Mingbuloq	2,8	16,2	43,3	74,5	545,7	623,6	751,0	758,6
Kosonsoy	9,6	14,6	43,0	96,4	314,4	589,9	970,2	1228,3
Namangan	2,9	20,4	70,2	227,4	1036,3	949,5	1062,4	1162,8
Norin	2,4	15,0	41,2	82,1	316,2	435,4	233,1	299,1
Pop	8,4	39,5	74,4	138,0	506,2	439,5	545,3	626,0
To'raqo'rg'on	4,6	17,1	62,2	179,0	1545,1	2511,8	3368,4	4273,8
Uychi	4,2	21,1	65,5	194,0	640,8	891,3	1028,1	1202,5
Uchqo'rg'on	6,8	33,6	133,2	216,5	782,2	834,7	951,6	836,6
Chortoq	3,1	16,0	26,5	66,7	187,2	282,5	394,8	493,0
Chust	3,1	17,7	50,5	105,4	584,0	801,1	1483,6	1870,3
Yangiqo'rg'on	2,6	16,0	28,5	111,1	197,3	244,9	279,9	314,4

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Namangan shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Xususan, 2023-yilda viloyatda 20826,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, shundan 7761,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari Namangan shahri hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda To'raqo'rg'on (4273,8 mlrd.so'm), Chust (1870,3 mlrd.so'm), Kosonsoy (1228,3 mlrd.so'm), Uychi (1202,5 mlrd.so'm), Namangan (1162,8 mlrd.so'm), Uchqo'rg'on (836,6 mlrd.so'm) tumanlari keyingi o'rinlarni egallagan.

Mingbuloq (758,6 mlrd.so'm), Pop (626,0 mlrd.so'm), Chortoq (493,0 mlrd.so'm), Yangiqo'rg'on (314,4 mlrd.so'm) va Norin (299,1 mlrd.so'm) tumanlarining bu boradagi ko'rsatkichlari ancha past.

Xuddi shuningdek, yuqoridagi kabi viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushini ham ifodalash mumkin. Buning uchun quyidagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratamiz (4-jadval).

4-jadval

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida hududlar ulushi

(ja'miga nisbatan foizda)

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Namangan viloyati	100	100	100	100	100	100	100	100
Namangan sh	25,5	31,3	52,7	47,8	39,5	41,3	38,9	37,3
<i>tumanlar:</i>								
Mingbuloq	4,1	4,9	0,7	2,6	5,0	4,2	4,1	3,6
Kosonsoy	14,2	4,4	3,5	3,4	2,9	4,0	5,3	5,9
Namangan	4,3	6,2	8,2	7,9	9,4	6,5	5,9	5,6
Norin	3,5	4,5	1,2	2,9	2,9	3,0	1,3	1,4
Pop	12,4	11,9	1,6	4,8	4,6	3,0	3,0	3,0

To'raqo'rg'on	6,8	5,2	2,5	6,3	14,0	17,1	18,6	20,5
Uychi	6,2	6,4	3,6	6,8	5,8	6,1	5,7	5,8
Uchqo'rg'on	10,0	10,2	15,6	7,6	7,1	5,7	5,3	4,0
Chortoq	4,6	4,8	3,4	2,3	1,7	1,9	2,2	2,4
Chust	4,6	5,4	3,8	3,7	5,3	5,5	8,2	9,0
Yangiqo'rg'on	3,8	4,8	3,2	3,9	1,8	1,7	1,5	1,5

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi kabi jadvalda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida Namangan shahrining ulushi yuqori bo'lib, 2023 yilda 37,3 foizni tashkil qilgan.

Keyingi o'rinlarda viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda To'raqo'rg'on (20,5 foiz), Chust (9,0 foiz), Kosonsoy (5,9 foiz), Uychi (5,8 foiz), Namangan (5,6 foiz), Uchqo'rg'on (4,0 foiz) tumanlari keyingi o'rinlarni egallagan.

Yuqoridagi kabi Mingbuloq (3,6 foiz), Pop (3,0 foiz), Chortoq (2,4 foiz), Yangiqo'rg'on (1,5 foiz) va Norin (1,4 foiz) tumanlarining viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi juda past ko'rsatkichlarni tashkil qilgan.

Viloyatda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish turlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq (5-jadval).

5-jadval

Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi (% da)

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	100	100	100	100
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	20,5	22,3	23,9	20,0	19,5	17,5
Ichimliklar ishlab chiqarish	3,9	4,6	5,4	4,6	3,6	4,6
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	34,4	30,8	26,9	32,8	35,7	31,6
Kiyim ishlab chiqarish	13,2	13,8	15,8	11,6	11,3	14,3
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,7	2,5	1,8	1,9	1,5	1,6
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,4	0,3	0,5	1,3	0,9	0,3
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	0,7	0,4	0,6	0,8	0,8	0,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,0	0,9	0,0	0,0	0,1	0,1
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	1,2	1,0	2,1	1,8	4,4	3,9

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	3,4	2,5	2,6	1,4	1,0	1,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	1,9	2,0	1,8	1,8	2,1	2,9
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	4,3	4,6	5,5	7,3	4,7	7,0
Metallurgiya sanoati	0,9	1,2	0,9	1,4	1,1	0,7
Mashina va uskunalar dnda tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	3,6	2,7	3,8	4,2	4,7	5,2
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	1,0	0,1	0,1	0,0	0,1
elektr uskunalar ishlab chiqarish	3,5	3,5	3,5	2,5	3,5	3,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	0,9	1,0	0,7	1,1	0,9	0,5
Avtotransport vositalari, treylar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	0,3	0,3	0,2	0,2	0,1	0,2
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,0	0,3	0,2	0,1	0,0	0,0
Mebel ishlab chiqarish	1,4	1,8	1,4	2,3	1,8	1,2
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	2,4	2,1	2,3	2,5	2,0	2,1
Mashina va uskunalarini ta'mirlash va o'rnatish	0,1	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2023-yilda viloyatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (31,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish (17,5 foiz) hamda kiyim ishlab chiqarish (14,3 foiz) sanoati yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini mlrd.so'mda ham ko'rish mumkin (-6-jadval).

6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

(mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	6586,6	8818,1	11011,9	14695,1	18120,5	20826,5
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	38,9	53,9	46,8	79,6	55,6	98,7
Ishlab chiqaradigan sanoat	6204,3	7996,8	9265,7	12299,5	14915,3	16951,8
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	1272,1	1787,3	2216,4	2462,6	2910,8	2968,2
Ichimliklar ishlab chiqarish	239,7	371,6	496,9	571,6	534,3	772,4

Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
To`qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	2132,0	2465,4	2495,3	4031,0	5324,4	5360,3
Kiyim ishlab chiqarish	821,8	1104,9	1459,6	1427,5	1688,8	2419,1
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	169,6	200,0	162,9	239,1	225,4	272,9
Yog`och va po`kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to`qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	26,9	25,8	46,8	160,7	131,9	57,3
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	40,9	35,9	52,1	94,4	122,9	156,3
Yoziqan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,8	70,0	4,5	4,2	8,4	10,7
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	15,1	7,7	8,3	11,8	14,2	14,8
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	76,6	80,5	192,8	226,8	655,0	652,6
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	210,2	201,3	239,2	177,3	152,3	238,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	119,9	156,3	165,0	217,7	315,1	484,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	264,8	369,9	509,7	898,3	703,4	1178,5
Metallurgiya sanoati	55,3	94,8	86,3	171,7	162,3	111,1
Mashina va uskunalar dna tashqari tayyormetall buyumlar ishlab chiqarish	222,5	217,2	353,8	514,9	701,5	879,5
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	4,0	77,2	5,3	7,3	7,4	13,1
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	215,6	276,4	325,0	307,9	528,7	662,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	53,3	81,3	60,5	130,1	133,4	87,6
Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	17,0	21,4	18,5	26,6	21,5	26,1
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,6	26,5	16,3	10,3	0,0	2,4
Mebel ishlab chiqarish	86,6	146,0	126,9	280,2	265,9	203,9
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	150,7	167,8	215,5	307,6	297,6	363,2

Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	6,0	11,6	8,4	19,8	10,2	15,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va hayoni konditsiyalash	258,5	673,8	1605,0	2162,2	2955,5	3553,4
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	2,1	93,6	94,5	153,8	194,1	222,6

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini asosiy yetakchi tarmoqlar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati bo'yicha:

Namangan viloyati Respublikamizning to'qimachilik sanoati tarmog'i jadal rivojlanayotgan hududlaridan bo'lib, bugungi kunda viloyatda 2 428 ta to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari faoliyat yuritmoqda.

Shundan, viloyatda yirik 131 ta to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari mavjud bo'lib, yiliga 102,9 ming tonna ip kalava, 163,0 mln.kv.m. bo'yalgan ip gazlama, 40,0 ming tonna bo'yalgan momiq sochiq 15,0 ming tn.trikotaj mato, 130,0 mln.dona tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Korxonalarda 98 ming tonna ip-kalava, 227 mln kv.m ip gazlama, 19 ming tonna trikotaj mato, 9 ming tonna trikotaj mato bo'yash, 746 mln donadan ortiq tayyor trikotaj va 5 mln juft paypoq ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilgan.

Bo'yoq quvvatlari bo'yicha viloyatda 20 ta yirik korxonalarda yillik 46,2 ming tonna momiq sochiq mahsulotlarini, 16 ming tonna trikotaj matoni, 163,0 mln.kv.m. ip gazlama mahsulotlarini bo'yash quvvati mavjud.

Viloyatda 2023 yil yakuni bilan ip-kalavani qayta ishlash darajasi 2016 yilga nisbatan 52 foizdan 77 foizga yetdi.

Trikotaj mato quvvatlari 19 ming tonnani tashkil etib, matoni bo'yash quvvatlari 50 foizni tashkil etadi.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari 1,9 barobarga oshirilib, 747 mln donaga yetkazildi.

Viloyatning respublika to'qimachilik sanoatidagi ulushi 10,9 foizni tashkil etmoqda.

Respublika bo'yicha tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmining 20 foizi (2 o'rin), gazlama matoni bo'yash hajmining 17 foizi (2 o'rin), ip gazlamaning 16 foizi (3 o'rin) Namangan viloyati hissasiga to'g'ri keladi[3,4].

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2016 yilga nisbatan 4 barobarga (7,8 trln so'm), eksport 18 barobarga (421 mln dollar) oshgan.

"Iftihor Kiyim Sanoat" korxonasi tomonidan "BALDESSARINI" (Germaniya), "Pierre Cardin" (Fransiya), "Fazman textile" korxonasi tomonidan "Carl Gross" (Germaniya), "CHUST TEXTILE" korxonasi tomonidan "Koton", "Sela" (Turkiya) kabi brendlar bilan eksport faoliyati yo'lga qo'yilgan.

2024-2025 yillarda viloyatda 681 mln dollar investisiya hisobiga 12 ta loyiha ishga tushiriladi. Jumladan, Namangan shahrida "Iftixor kiyim sanoat" MCHJ tomonidan aralash ip kalava, Namangan tumanida "Toshbuloq Teks" MCHJ tomonidan tayyor gazlama mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari amalga oshiriladi. Ip-kalavani qayta ishlash darajasini 90 foizga

yetkaziladi. Buning hisobiga 8 mingdan ortiq yangi ish o'ri tashkil etilib, 166 mln dollarlik qo'shimcha eksport salohiyati yaratiladi.

Bugungi kunda respublika bo'yicha 21 ta yigiruv korxonalaridan 61,5 ming tonna sun'iy tola aralash ip kalava hamda 11 ta korxonada 36 mln.kv.m. sun'iy tola aralash gazlama ishlab chiqarilmoqda.

Shundan, Namangan viloyatida 6,6 ming tonna aralash ip kalava va 4,8mln.kv.m. aralash to'la gazlama ishlab chiqariladi.

Sohada kadrlarni malakasini oshirish maqsadida 15ta dizayner-konstruktor va turli yo'nalishdagi texnologlarni tayyorlash bo'yicha xorijda o'qitiladi.

Shu o'rinda, viloyatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmini ham ko'rib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun quyidagi (7-jadval) ma'lumotlaridan foydalanamiz.

7-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti

(ming so'm)

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Namangan viloyati	35,0	158,2	434,2	1109,7	3878,7	5068,6	6112,9	6869,3
Namangan sh	44,4	251,5	823,7	2802,4	6881,2	9328,6	10531,6	11291,6
<i>tumanlar:</i>								
Mingbuloq	33,4	176,9	421,8	646,3	4293,4	4804,9	5663,4	5598,7
Kosonsoy	71,6	99,6	256,8	507,0	1493,0	2739,8	4405,5	5451,2
Namangan	18,5	121,2	365,4	1037,5	5737,9	5222,1	5711,5	6105,2
Norin	20,8	123,4	303,9	543,0	1920,1	2596,7	1364,1	1717,5
Pop	55,8	242,0	409,8	681,8	2292,8	1955,5	2380,5	2681,2
To'raqo'rg'on	30,0	103,2	337,9	871,9	6785,6	10884,4	14243,6	17637,1
Uychi	26,5	121,1	340,1	905,5	2987,5	4061,1	4576,0	5233,2
Uchqo'rg'on	55,2	254,5	919,9	1368,3	4518,8	4732,7	5289,1	4557,2
Chortoq	22,3	107,4	160,3	362,1	934,7	1383,4	1895,7	2318,7
Chust	16,4	86,9	227,2	431,6	2187,3	2946,4	5354,3	6616,9
Yangiqo'rg'on	17,8	98,7	155,6	541,2	898,4	1091,7	1220,0	1340,1

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2023-yilda viloyatda aholi jon boshiga 6869,3 ming so'mlik sanoat mahsulotlari to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha viloyatda Namangan shahri yetakchi bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 11291,6 ming so'mni tashkil qilgan.

Shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlariga ham e'tibor qarataidigan bo'lsak, quyidagi holatga guvoh bo'lishimiz mumkin (8-jadval).

8-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foizda)

Hududlar	2000-yil	2005-yil	2010-yil	2015-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Namangan viloyati	124,1	112,3	116,9	112,2	113,0	115,8	106,7	104,8
Namangan sh	105,7	115,0	128,7	112,6	100,8	110,2	100,8	103,1
<i>tumanlar:</i>								
Mingbuloq	105,7	102,3	106,8	108,0	104,2	105,7	120,2	99,1
Kosonsoy	77,8	119,6	108,6	122,7	85,6	120,0	119,7	106,6
Namangan	111,5	125,0	111,6	112,7	105,0	96,1	103,2	98,7
Norin	140,2	113,7	106,6	111,4	100,5	109,5	100,8	102,2
Pop	134,2	99,9	101,5	102,8	106,5	94,1	105,5	101,2
To'raqo'rg'on	125,9	114,8	118,4	106,4	103,8	122,0	114,7	101,6
Uychi	64,7	115,6	125,4	116,4	98,0	109,9	100,3	102,7
Uchqo'rg'on	147,6	121,6	118,9	111,7	107,5	98,6	96,8	90,9
Chortoq	220,1	100,6	110,6	114,1	105,6	114,6	108,7	106,1
Chust	58,6	116,6	129,3	102,2	116,1	116,5	118,1	106,6
Yangiqo'rg'on	182,0	99,2	113,2	130,7	102,7	110,0	103,7	100,3

Manba: www.namstat.uz ma'lumotlari asosida tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2023-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2022-yilga nisbatan viloyat bo'yicha 4,8 foizga o'sgan bo'lsa, tumanlar kesimida bu borada eng yaxshi ko'rsatkich Kosonsoy hamda Chust tumanlariga tegishli. Bu tumanlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga o'sishga erishilgan. Biroq, 2023-yilda Mingbuloq (99,1 foiz), Namangan (98,7 foiz) hamda Uchqo'rg'on (90,9 foiz) tumanlarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari 2022-yilga nisbatan birmuncha kamaygan.

XULOSA

Namangan viloyati sanoati fan-texnika taraqqiyoti, boshqaruvi va tashkil etilishining takomillashuvi, kadrlar salohiyatining yuqori darajaga ko'tarilishi hamda xorijiy investitsiyalarning ko'plab jalb etilishi tufayli izchil rivojlanib bormoqda. Biroq, sanoat sohasida ajoyib yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar va hal etilmagan muammolar ham mavjud. Bu muammolarning yechimini topish uchun viloyatda keng imkoniyatlar, ya'ni juda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud. Ana shu resurslardan oqilona foydalanish asosida viloyatning juda qudratli va samarali sanoatini yanada yuqori darajaga ko'tarish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.namangan.uz
2. www.namstat.uz
3. Tozalash mashinalari jarayoni va uning samaradorligini aniqlash usullari B Mirzabayev, M Yusupova, M Inoyatova, M Abdurahimova //Conference 20-24,2023.
4. Inoyatova M. et al. ANALYSIS OF CLEANING PROCESS METHODS AND MACHINES //Conferencea. – 2022. – C. 40-43.